Sug’urtani iqtisodiy o’sishga ta’sirini rivojlantiradigan nazariy va amaliy ahamiyati

Maxmasaidova Sayyodxon Ubaydulla qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
E-mail: sayyodxonm@gmail.com
ORCID: 0000-0003-2023-7374

Annotatsiya. Mazkur tezisda sug‘urta faoliyatining mamlakat iqtisodiy o‘sishiga ta’siri O‘zbekiston misolida tahlil qilingan. Tadqiqotda sug‘urta bozorining rivojlanish bosqichlari, so‘nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar va sug‘urta xizmatlarining iqtisodiyotdagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so’zlar: sug‘urta, iqtisodiy o‘sish, yalpi ichki mahsulot, sug‘urta mukofotlari, sug‘urta bozori, investitsiyalar, inflyatsiya, mehnat resurslari, ekonometrik modellashtirish, elastiklik, sug‘urta faoliyati.

ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ И ПРАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ СТРАХОВАНИЯ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ЕГО ВЛИЯНИЯ НА ЭКОНОМИЧЕСКИЙ РОСТ

Махмасаидова Сайёдхон Убайдулла кизы
Ташкентский государственный экономический университет
E-mail: *sayyodxon@bk.ru*
ORCID: 0000-0003-2023-7374

Аннотация. В данной тезис анализируется влияние страховой деятельности на экономический рост страны на примере Узбекистана. В исследовании освещаются этапы развития страхового рынка, реформы, проведенные в последние годы, и значение страховых услуг в экономике.

Ключевые слова: страхование, экономический рост, валовой внутренний продукт, страховые премии, страховой рынок, инвестиции, инфляция, трудовые ресурсы, эконометрическое моделирование, эластичность, страховая деятельность.

THEORETICAL AND PRACTICAL IMPORTANCE OF DEVELOPING THE IMPACT OF INSURANCE ON ECONOMIC GROWTH

Maxmasaidova Sayyodxon Ubaydulla qizi
Tashkent State University of Economics
E-mail: sayyodxonm@gmail.com
ORCID: 0000-0003-2023-7374

Abstract. In this thesis, the impact of insurance activities on the economic growth of the country was analyzed on the example of Uzbekistan. The study covered the stages of the development of the insurance market, the reforms implemented in recent years and the importance of insurance services in the economy.

Key words: insurance, economic growth, gross domestic product, insurance premiums, insurance market, investments, inflation, labor resources, econometric modeling, elasticity, insurance activity.

Shiddat bilan rivojlanyotgan raqobatbardosh iqtisodiyotni rivojlantirishda sug'urtani o'rni muhum ahamiyatga ega. Rivojlangan mamlakatlarda ayniqsa bunga juda katta e'tobor qaratilgan. Mamlakning iqtisodiy o'sishiga sug'urtaning ham o'rni katta ahamiyatga ega.

O'zbekistonda ham sug'urtani rivojlantirish, uning iqtisodiyotga ta'siri to'g'risida va ularni isloh qilishda bir qator qonunlar, reformalar, qarorlar qabul qilingan va islohatlar amalga oshirilgan. Jumladan: sug'urtalovchilarning ustav fondini shakllantirish tartibi, litsenziyalash talablari va boshqa muhim me'yorlar belgilangan. 2011 yil 31-maydagi PQ-1544-sonli qarori "Sug'urtachilarning moliyaviy barqarorligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risid" bo'lib, sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyatini oshirish, ularning moliyaviy holatini mustahkamlash va sug'urta bozorining barqarorligini ta'minlashga qaratilgan. PQ-5265-sonli qaror 2021 yil 2-iyunda qabulgan bo'lib unda "Sug'urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug'urtasi sohasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" bo'lib, 2022-yil 1-iyuldan boshlab sug'urtaning barcha turlarini elektron shaklda amalga oshirishga ruxsat berilgan.

So'ngi 10 yil 2015-2024 yillar ichida YAIM sezilarli darajada o'sdi. 2015 yil 86.2 mlrd dollar edi 2024 yil ga kelib bu ko'rsatgich 115 mlrd dollargacha o'sdi. Bu real ishlab chiqarish hajmi pandemiya va boshqa omillarga qaramay 33% ga ortdi.[6]

Sug'urtani rivojlantirish uchun so'ngi yillarda qilingan amaliy ishlar va chora tadbirlar quyidagilardan iborat.

Yil	Asosiy amaliy ishlar va chora-tadbirlar
2014	Sug'urta bozorini rivojlantirish bo'yicha strategik hujjat ishlab chiqildi. Avtomobil mas'uliyati majburiy sug'urtasi (OSAGO) joriy qilindi. Sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini oshirish uchun minimal kapital talablari belgilandi.
2015	Hayot sug'urtasi bo'yicha onlayn polislar sinov tariqasida joriy qilindi. Mahalliy sug'urta kompaniyalarining audit tizimi kuchaytirildi. Sug'urta xizmatlarini raqamlashtirish bo'yicha dastlabki pilot loyihalar boshlandi.
2016	Majburiy tibbiy sug'urta (MTS) tizimi bosqichma-bosqich yo'lga qo'yildi. Sug'urta kompaniyalari uchun elektron hisobot tizimi joriy qilindi. Sug'urta sohasida xalqaro tajriba bo'yicha seminarlar tashkil etildi.
2017	Sug'urta kompaniyalari faoliyati uchun yagona axborot bazasi yaratildi. Qurilish va qishloq xo'jaligi sug'urtasi turlari kengaytirildi. Raqamli sug'urta (e-polis) uchun qonunchilik asoslari ishlab chiqildi.
2018	Xorijiy sug'urta kompaniyalarini jalb qilish va raqobatni oshirish bo'yicha tartiblar belgilandi. Onlayn polislar tizimi kengaytirildi. Sug'urta kompaniyalarining rezerv fondlarini mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirildi.
2019	Sug'urta madaniyati va ijtimoiy targ'ibot kampaniyalari boshlandi. Hayot, sog'liq va mol-mulk sug'urtasining foydasini oshirish bo'yicha seminarlar o'tkazildi. Mobil ilovalar orqali polis sotish tizimi ishga tushirildi.
2020	COVID-19 pandemiyasi fonida sog'liq sug'urtasi xizmatlari kengaytirildi. Tezkor onlayn da'vo qabul qilish tizimlari joriy qilindi. Mikrosug'urta va ixtiyoriy sug'urta turlari bo'yicha yangi loyihalar boshlab yuborildi.
2021	Sug'urta kompaniyalarining investitsiya faoliyatini diversifikatsiya qilish

	imkoniyati oshirildi. Elektron sug‘urta polislarini rasmiylashtirish tizimi optimizatsiya qilindi. Banklar bilan hamkorlikda “birlashgan mahsulotlar” joriy qilindi.
2022	Onlayn sug‘urta xizmatlari va mobil ilovalar orqali xizmat ko‘rsatish kengaytirildi. Mahalliy mutaxassislar uchun xalqaro treninglar o‘tkazildi. Avtomobil sug‘urtasida raqamli monitoring tizimi joriy qilindi.
2023	Sug‘urta kompaniyalarining risklarni baholash tizimi avtomatlashtirildi. Ijtimoiy targ‘ibot orqali sug‘urta madaniyati kengaytirildi. Hayot va sog‘liq sug‘urtasi bo‘yicha yangi ixtiyoriy paketlar ishlab chiqildi.
2024	Raqamli va onlayn sug‘urta tizimlari to‘liq joriy qilindi. Xorijiy va mahalliy investitsiyalar orqali sug‘urta bozorini kengaytirish choralari amalga oshirildi. Sug‘urta kompaniyalari faoliyatining shaffofligi va nazorati kuchaytirildi.

Ekonometrik tahlilda modelni qanday qurish aniq belgilab olinadi ya’ni real iqtisodiy jarayonni matematik tenglama orqali ifodalashda qaysi o’zgaruvchi, qaysi shaklda va qanday bog’lanishda qatnashishi aniqlanadi. O’zgaruvchilar asosan bog’liq o’zgaruvchilar va mustaqil o’zgaruvchilarga ajratiladi va har bir o’zgaruvchiga ta’sir etuvchi omillar o’rganiladi. O’zgaruvchilarning funksional bog’lanishi chiziqli, kvadratik, logarifmik, ARDL, VECM va boshqa shakllarda bog’lanadi.

Sug’urtaning rivojlanish bosqichlari mamlakat iqtisodiyotiga sezilarli ta’sir ko’rsatadi, Mazkur tadqiqot ishi yillik vaqt qatori ma’lumotlaridan foydalanildi. O’zbekistondagi sug’urta faoliyati oxirgi 5 yil mobaynida rasmiy statistik ma’lumotlar yig’ildi. Asosan YAIM, sug’urta mukofotlari, umumiy va hayot sug’urtasi mukofotlari, sug’urta badallari, umumiy va hayot sug’urtasi badallari miqdorlari keltirilgan. O’zgaruvchilar bog’liq va mustaqil o’zgaruvchilarga ajratiladi. GDP- yalpi ichki mahsulot iqtisodiy o’sish ko’rsatgichi hisoblanad. GDP – bog’liq o’zgaruvchi. INS – jami sug’urta mukofotlari, INV – investetsiyalar hajmi, INF – inflyatsiya darajasi, LAB – mehnat resurslari bunda asosan band aholi soni hisoblanadi, keltirilgan o’zgaruvchilar mustaqil o’zgaruvchilardir. O’zgaruvchilarning dispersiyasining barqarorlashitirish va elastikliklarini talqin qilish maqsadida ko’rsatkichlarni logarifmik shaklda olinadi.

Sug’urta tizimi risklarni kamaytirish, jamg’armalarni safarbar etish va investitsion faollikni oshirish orqali iqtisodiy o’sishga ijobiy ta’sir ko’rsatadi. Ushbu munosabatni quyidagi funksional ko’rinishda ifodalanadi.

$$GDP_t = f(INS_t, INV_t, INF_t, LAB_t)$$

Ushbu bog’lanishni ekonometrik tenglama ko’rinishi quyidagicha bo’ladi.

$$\ln GDP_t = \beta_0 + \beta_1 \ln INS_t + \beta_2 \ln INV_t + \beta_3 \ln INF_t + \beta_4 LAB_t + \varepsilon_t$$

Bu yerda

β_0 - ozod son,

β_1, β_2, β_3, β_4 - baholanadigan parametrlar,

ε_t - tasodifiy xatolik.

Model parametrlari sug’urtani iqtisodiy o’sishga elastiklik ta’sirini aniqlash uchun foydalaniladi.[5]

Ekonometrik modellashtirishda statistik ma’lumotlarni tahlil qilishda eng avval tasviriy statistik ma’lumotlar orqali kuzatiladi. Mashhur statistik olim Neil A. Weiss tasviriy statistika haqida quyidagi fikrlarni aytgan. “Ma’lumotlarni tartibga solish, umumlashtirish va tushunarli shaklda ifodalash usullari majmuasidir”[1]. K.Pearson zamonaviy statistikaga asos solgan bo’lib, grafik tasvirlash va

ma’lumotlarni tavsiflashga katta e’tibor bergan[2]. M.Spiegel statistikadan darsliklar muallifi bo’lib, tasviriy statistikani soddalashtirib tushuntirish bilan mashhur bo’lgan[3].

Tadqiqot natijasida sug‘urta tizimi mamlakat iqtisodiy rivojlanishining muhim tarkibiy qismlaridan biri ekanligi aniqlandi. Sug‘urta faoliyatining rivojlanishi iqtisodiyotdagi turli risklarni kamaytirish, moliyaviy resurslarni jamlash, investitsion faollikni oshirish hamda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston sug‘urta bozorining rivojlanish jarayonlari tahlili sug‘urta xizmatlarini raqamlashtirish, onlayn sug‘urta xizmatlarini kengaytirish, sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, risklarni baholash tizimini takomillashtirish va sug‘urta bozoriga investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilganini ko‘rsatadi.

Tadqiqotda iqtisodiy o‘sishni ifodalovchi asosiy ko‘rsatkich sifatida yalpi ichki mahsulot (GDP) tanlangan. Sug‘urta faoliyatining iqtisodiy o‘sishga ta’sirini baholashda jami sug‘urta mukofotlari (INS), investitsiyalar hajmi (INV), inflyatsiya darajasi (INF) va mehnat resurslari (LAB) mustaqil o‘zgaruvchilar sifatida shakllantirilgan. Ko‘rsatkichlarni logarifmik shaklda ifodalash orqali ularning o‘zaro bog‘liqligi va elastiklik ta’sirini baholash imkoniyati yaratilgan. Ekonometrik yondashuvdan foydalanish sug‘urta rivojlanishi va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlikni miqdoriy jihatdan baholash imkonini beradi. Xususan, model parametrlari sug‘urta faoliyatidagi o‘zgarishlarning YAIMga ta’sir darajasini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli sug‘urta bozorining rivojlanish ko‘rsatkichlarini iqtisodiy o‘sishning boshqa muhim omillari bilan birgalikda ekonometrik modelga kiritish ilmiy jihatdan asoslangan yondashuv hisoblanadi. Umuman olganda, sug‘urta sektorining rivojlanishi O‘zbekiston iqtisodiyotida moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlashning muhim omillaridan biri sifatida qaralishi mumkin. Kelgusida sug‘urta mukofotlari, investitsiyalar, sug‘urta penetratsiyasi va sug‘urta zichligi kabi ko‘rsatkichlardan foydalanib, vaqt qatori ma’lumotlari asosida yanada takomillashtirilgan ekonometrik modellarni qo‘llash sug‘urtaning iqtisodiy o‘sishga ta’sirini chuqurroq baholash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Weiss N.A. Introductory Statistics. – 10th ed. – Boston: Pearson, 2015. – 848p.
2. Spiegel M.R., Stephens L.J. Schaum's Outline of Statistics. – 4th ed. – New York: McGraw-Hill, 2008.
3. Pearson K. On Lines and Planes of Closest Fit to Systems of Points in Space // Philosophical Magazine. – 1901. – Vol. 2, No. 11. – P. 559–572.
4. Maxmasaidova, S. (2026). SUG‘URTA FAOLIYATINI BAHOLASHNING EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING USLUBIY JIHATLARI.// “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. Vol 5, N1. B – 270-275. https://zenodo.org/records/20740250
5. Sotvoldiyev A., Maxmasaidova S. MATEMATIKADA QIZIQARLI MASALALAR VAYECHISH USULLARI //SCIENTIFIC RESEARCH, INNOVATIONS, AND MODERN APPROACHES. – 2026. – T. 1. – №. 2. – C. 122-131.
6. O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi. O‘zbekiston Respublikasi sug‘urta bozori statistik ma’lumotlari [Elektron resurs]. – URL: https://napp.uz/ – Murojaat sanasi: 12.08.2026.